

Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashda birlashaylik!

Davlatimiz tomonidan karantin davrida xalqimizning oziq-ovqat va kundalik ehtiyojlarini to'liq qamrab olish, ayniqsa, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalash borasida qator chora-tadbirlar belgilandi va amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti COVID-19 ga qarshi kurashda aholiga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan "O'zbekiston mehr-shafqat va salomatlik" jamoat fondiga xodimlarning bir kunlik ish haqini beg'araz yordam tariqasida o'tkazib berdi.



Koronavirus pandemiyasi bugun butun dunyoni larzaga keltirdi. Unga qarshi kurashish mamlakatimiz uchun o'ta jiddiy sinov bo'ldi. Ushbu og'ir damlarda barchamizdan sabr-toqat, birdamlik talab etiladi va biz albatta buning uddasidan chiqamiz.

Qadrli yurtdoshim! Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashda birlashaylik!